

Andijon davlat tibbiyot instituti, patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrasi kafedrasi



**Kafedra mudiri: dotsent, tibbiyot fanlar
nomzodi**

**MAMATALIEV AVAZBEK
ROZUVAEVICH**

Ish vaqti: 7:30 – 17: 00

Tel: +998913411127

e-mail: *Mamataliev avazbek 1966 @gmail.com*

PATOLOGIK ANATOMIYA VA SUD TIBBIYOTI KAFEDRASI TARIXI VA FAOLIYATI

PATOLOGIK ANATOMIYA KAFEDRASI -1957-yilda tashkil etilgan. 1957-1965 yillarda dotsent P.D.To'lyaganov boshqargan. 1965-1995 yillarda kafedrani professor N.G.Aleksandrov boshqargan. N.G.Aleksandrov rahbarligida 6ta fan doktori va 31ta tibbiyot fanlari nomzodlari tayyorlandi.1995-2001yiilari kafedrani dotsent A.N.Don boshqargan.

Shu davrlarda Ilinov V.P., Egorova L.V., Levitin V.Ya., Yusupov M.Yu., dots. Yusupov I.B., dots. Nordkin G.M., dots. T.B.Ablyazimova, assistentlar, t.f.n. Balayan B.G., Yagudaev A.M., Nordkina L.D., Zulunov Yu.Z., Neyman G.V., Gerasimov N.F., Nagay S.G., Skachkov Yu.N., Don A.N., Xudoyberdiev Sh.Э., Mamajonov L.M., Tyan' D.L. va boshqalar kafedrada faoliyat ko`rsatganlar.

Patologik anatomiya kafedrasida xozirgi vaqtda kafedra mudiri, dotsent Mamataliev A.R., katta o`qituvchi Mamatalieva M.A., assistentlar Asranov C.A., Xaydarov M.A., O.O. Alibekov, Turg'unova L.Z., R.R. Sahatalievalar faoliyat ko`rsatmoqdalap.

Kafedra ADTI klinikasining patologik anatomiya bo'limi binosida joylashgan.4ta o'quv xona, 1ta kompyuter xonasi, 1ta ma`ruza zalidan iborat.



Patologik anatomiya kafedrasining 1985-1995 yillardagi xodimlari: kafedra mudiri, professor N.G.Aleksandrov, dotsent T.B.Ablyazimova, assistent –tibbiyot fanlari nomzodlari Nordkina L.D., Neyman G.V., Gerasimov N.F., Nagay S.G., katta o'qituvchilar Skachkov Yu.N., gistolaborantlar Pilina L.P., Egorova N.E. va b.

SUD TIBBIYOTI KAFEDRASI - 1959-yili dotsent V.A.Kajev rahbarligida tashkil qilingan va 1970-yilgacha ushbu kafedrani boshqargan.

1970-yilgacha kafedrani dotsent V.A.Ayrepetov boshqargan.

1980-2013-yilgacha kafedrani tibbiyot fanlari doktori, professor A.S.Churikova boshqarib kelgan.

1998-2016 yillari sud tibbiyoti, patologik fiziologiya va patologik anatomiya kafedralari bilan, hozirda patologik anatomiya kafedrasini bilan birgalikda faoliyat ko'rsatmoqda.

Kafedra AVSTƏ binosida joylashgan. 4ta o'quv xonasi, 1ta ma'ruza zalidan iborat.

PATOLOGIK ANATOMIYA VA SUD TIBBIYOTI KAFEDRASI XODIMLARI TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

(kafedra mudiri, professorlari)



TO'LYAGANOV FOZIL JURAEVICH (1924-2001yy.)

1952 yilda Tosh.Dav.Tini bitirgan. 1962-1965 yillarda ADTI patologik anatomiya kafedrasini, 1966-1968 yillarda Tosh.Dav.Tini patologik anatomiya kafedrasini, 1971 -1976 yillarda sud tibbiyoti kafedrasini mudiri bo'lgan. 96 ta ilmiy maqola, 2 ta darslik va 2 ta uslubiy qo'llanma muallifi, ular xazm sistemasi, endemik bo'qqoq, yurak-qon tomirlari sistemasining patologiyasiga bag'ishlangan. 1ta fan doktori va 11ta fan nomzodini tayyorlagan.



ALEKSANDROV NIKOLAY GEORGIEVICH (1932-

1995yy.) 1958y. ADTida – sud tibbiyoti kafedrasida dotsent, 1965-1995yillari patologik anatomiya kafedrasini mudiri, professor. N.G.Aleksandrov Farg'ona vodiysidagi endemik bo'qqoqlarni tomirlar patologiyasi bilan bog'liqligini o'rgandi, autoimmun jarayonlarning ateroskleroz rivojlanishidagi dolzarb muammolarini kompleks ishlab chiqdi. Uning rahbarligi ostida 5ta doktorlik va 31ta nomzodlik dissertatsiyalar yoqlangan.



CHURIKOVA ALEKSANDRA SERGEEVNA - ADTini 1963-yili tugatgan.

Professor Churikova A.S. rahbarligida 1ta nomzodlik va 1ta doktorlik dissertatsiyasini yoqlangan, 12 nafardan ortiq klinik ordinatorlar tayyorlangan. O'z ish faoliyatida 400 dan ortiq ilmiy maqolalar, 60 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalar chop ettirgan. 60 dan ortiq ratsionalizatorlik takliflar muallifi.



DON ANDREY NIKOLAEVICH 1995-1999 yillari patologik anatomiya kafedrasini mudiri, dotsent.

Uning rahbarligi ostida triterpen saponinlarni antiaterosklerotik ta'sirlari o'rganilgan. 200 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 2 ta ixtiro, 20 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiq kiritgan, 2 ta o'quv qo'llanma, 40dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi. U kafedrada faoliyati davomida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birga o'quv jarayoniga va uni rivojlanishiga jiddiy e'tibor berdi.

	<p>KARIMOV ZAFAR MIRZAEVICH - 1971-yili ADTIni tamomlagan. 1971-1983-yillarda Andijon viloyat sud tibbiyoti ekspertiza byurosi ambulatoriya bo`limi boshligi lavozimida ishladi. Karimov Z.M. Ish faoliyati davomida 200ga yaqin maqola va tezislar chop ettirgan, 30 dan ortiq o`quv-uslubiy qo`llanmalar muallifidir. 20ta ratsionalizatorlik takliflari mavjud bo`lib, ular o`quv jarayoniga tadbiiq etilgan.</p>
	<p>MAMATALIEV AVAZBEK ROZUVAEVICH - dotsent, t.f.n. - 2014 yildan shu kungacha kafedrani boshqarmokda. U o`z faoliyatida 40dan ortiq ilmiy maqola, 60dan ortiq tezislar, 2ta o`quv qo`lanma, 50ga yaqin o`quv-uslubiy qo`llanmalar va 8ta ratsionalizatorlik takliflarni chop ettirgan va amaliyotga tadbiiq etgan</p>
	<p>MAMATALIEVA MAVLYUDA ALIDJANOVNA – ADTIni pediatriya fakul'tetini 1992yilda tamomlagan. Ish faoliyati davomida 1ta darslik hammuallifi, 5ta o`quv qo`llanma, 70ga yaqin o`quv uslubiy qo`llanma, 8ta ratsionalizatorlik taklif, 8ta amaliyotga tadbiiq, 15ta ilmiy maqola, 70ga yaqin tezislar muallifi.</p>
	<p>AHMEDOVA MUFAZZAL SANJAROVNA –ADTI ped. fak. 1986-yilda tugatgan. “Топографоанатомическое особенности 12-перстной кишки у человека в динамике у младенца, новорожденных и до 90 лет” mavzusida ilmiy ish olib bormoqda, Ish faoliyatida 30 dan ortiq jurnal maqolasi va tezislar, 15 dan ortiq o`quv-uslubiy qo`llanmalar muallifidir.</p>
	<p>ASRANOV SARDORBEK AZIMJANOVICH - 2004 yili ADTIni pediatriya fakul'tetini tamomlagan. 2005-2008yy. “Yuqumli kasalliklar” mutaxassisligi bo`yicha magistraturada o`qigan. 2011 yildan kafedra assistenti. Asranov S.A. shu yillar mobaynida 5 ta o`quv-uslubiy qo`llanma, 8ta ilmiy tezislar muallifidir.</p>

	<p>HAYDAROV MIROLIM ABDUMAJIDOVICH - 2005 yili ADTIni davolash fakul'tetini tamomlagan. 2009-2011yy. "Morfologiya" mutahassisligi bo'yicha magistraturada o'qigan. 2011 yildan kafedra assistenti. M.A.Haydarov shu yillar mobaynida 5 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 15 dan ortiq ilmiy tezislar muallifidir.</p>
	<p>ALIBEKOV OMADBEK OZODBEKOVICH - 2008 yili ADTIni pediatriya fakul'tetini tamomlagan. 2009-2011yy. "Morfologiya" mutaxassisligi bo'yicha magistraturada o'qigan. 2011 yildan kafedra assistenti. Alibekov O.O. shu yillar mobaynida 15 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 10 dan ortiq ilmiy tezislar muallifidir.</p>

PATOLOGIK ANATOMIYA VA SUD TIBBIYOTI KAFEDRASIDA O'TILADIGAN FANLAR

BAKALAVRIAT

- Patologik anatomiya
- Sud tibbiyoti
- Biopsiya kursi
- Shifokor faoliyatining huquqiy asoslari

MAGISTRATURA

Sud tibbiyoti

PATOLOGIK ANATOMIYA VA SUD TIBBIYOTI KAFEDRASIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI OLIB BORILISHI VA JIXOZLANISHI

(Kafedralarda ma`ruzalar va amaliy mashg'ulotlarni olib borilishi o'zbek, rus va ingliz tili bo'yicha jhozlanib, olib boriladi.)



PATOLOGIK ANATOMIYA VA SUD TIBBIYOTI KAFEDRASINING ILMIY YO'NALISHLARI

Patomorfologiya muammolari bo'yicha:

1. Yangi antiaterosklerotik preparatlarni o'rganish.
2. Endemik bo'qoqlarni tomirlar patologiyasi bilan bog'liqliklarini (ateroskleroz bilan) o'rganish.

Sud tibbiyoti muammolari bo'yicha:

1. Эпидемиологии и патоморфология аорты коронарных артерий сердца у населения Ферганской долины.
2. Топографо-анатомические особенности 12-перстной кишки у человека в динамике у младенца, новорожденных и до 90 лет.

PATOLOGIK ANATOMIYA VA SUD TIBBIYOTI KAFEDRASINING IQTIDORLI TALABALARI



Ganieva Umida - 2012yildagi Prezident stipendiyasi g'olibi, 10dan ortiq jurnal maqola, 100ga yaqin tezis, 4ta rats.taklif, 4ta amaliyotga tadbiiq muallifidir.

IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASH



Kafedra assistenti M.S.Axmedova iqtidorli talabalar bilan voqea tafsilotlari bo'yicha yig'ilgan natijalarni tahlil qilishi



*Kafedra dotsenti A.R.Mamataliev
iqtidorli talabalar bilan qandli diabetning patomorfologik o'zgarishlarini taxlil
qilmokda*



*Kafedra assistenti M.A.Xaydarov iqtidorli talabalar bilan yurakning ishemik
kasalliklaridagi mikroskopik o'zgarishlarni o'rganish jarayonida*

**PATOLOGIK ANATOMIYA VA SUD TIBBIYOTI KAFEDRASI
AXOLI O'RTASIDA OLIB BORILAYOTGAN MA'NAViy-MA'RIFIY
ISHLAR**

